

TARIX FANLARINI O'QITISHDA VIRTUAL MUZEY VA INTERFAOL DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Xojametov Gulmurat Bekmuratovich

Nukus davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21466580>

Annotatsiya. Tezisda tarix fanlarini o'qitishda AKTdan foydalanish samaradorligini oshiruvchi amaliy-metodik vositalar – virtual muzey va virtual ekskursiya, Hot Potatoes 6 dasturi asosidagi didaktik o'yinlar, interfaol elektron plakatlarni hamda onlayn lug'atlarni yaratish va o'quv jarayonida qo'llash metodikasi tajriba-sinov ishlari natijalari asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: virtual muzey, virtual ekskursiya, Hot Potatoes 6, didaktik o'yin, krossvord, interfaol elektron plakat, onlayn lug'at, Visme, Netlify.

Axborotlashuv sharoitida ta'lim oluvchilar o'rtasida matnli emas, balki vizual – tasvir, ovoz va harakatga ega axborotga qiziqish kuchaymoqda. Tarix fanlari o'zida juda katta xronologik bilimlarni qamrab olganligi bois ta'lim oluvchilardan barqaror diqqat, boy tasavvur va keng dunyoqarashni talab qiladi. Shu bois tarixiy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga AKTning funktsional imkoniyatlariga tayangan holda vizual o'quv materiallarini tayyorlash orqali erishish mumkin. Bunda virtual muzey va virtual ekskursiyalar o'ziga xos didaktik ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda virtual muzey muzey materiallari ekspozitsiyasini tashkil etishga ixtisoslashgan veb-sayt turi [1], raqamli resurslarni yig'ish, saqlash va taqdim qilish imkoniyatiga ega dasturiy-qurilmaviy platforma [2] sifatida talqin qilinadi. Yevropaning V-MUST loyihasi doirasida virtual muzeylarning mobil qurilma, sensorli qurilmalar, kompyuter animatsiyasi hamda virtual borliq shlemlari yordamida namoyish etiladigan turlari ajratib ko'rsatilgan [3]. D.N.Dzyuba esa virtual muzeylarni kontent xarakteri va kommunikatsiya turiga ko'ra klassifikatsiyalashni taklif qilgan [4].

Tajriba-sinov ishlari dasturiga respondent-talabalarda virtual muzeyni yaratish kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan "Virtual muzey va undan tarix fanlarini o'qitishda foydalanish" mavzusidagi mahorat darsi kiritildi. Mahorat darsi umumiy o'rta ta'limning 6-sinf "Qadimgi tarix – taraqqiyotning boshlanishi" kursi materiallari asosida tashkil etilib, quyidagi bosqichlarni qamrab oldi: bosma va elektron manbalar asosida O'zbekiston tarixining eng qadimgi davriga oid materiallarni to'plash; ularni saralash va bo'limlarga ajratib tizimlashtirish; har bir material bo'yicha qisqacha izohlar tayyorlash; izohli materiallarni Visme hamda Netlify platformalarida vizual ifodalash va tegishli bo'limlarga joylashtirish; shakllantirilgan model asosida virtual ekskursiyani tashkil qilish. Mazkur platformalarning bepulligi ularda erkin ishlash imkonini yaratadi.

Virtual ekskursiya o'qitishning innovatsion shakli sifatida real ekskursiyaga xos cheklovlarni bartaraf etadi: u vaqt va makonga bog'liq bo'lmagan holda obyektning qayta-qayta kuzatish imkonini beradi [5]. E.V.Aleksandrova virtual ekskursiyani o'quv jarayonini tashkil etishning samarali shakllaridan biri sifatida e'tirof etadi [6].

Tarix fanlarini o'qitishda o'quv topshiriqlarini interfaol shaklda taqdim etishda Kanadaning Viktoriya universiteti Axborot texnologiyalari markazida ishlab chiqilgan Hot Potatoes qobiqli dasturi alohida ahamiyatga ega [7]. Dastur yordamida matnli, grafikli, audio va video axborotlar asosida turli tillarda interfaol o'quv topshiriqlarini yaratish hamda

tahrirlash mumkin [8]. Dastur beshta blokdan iborat: JQuiz (viktorina savollari), JCloze (bo'sh o'rinlarni to'ldirish), JMatch (moslikni aniqlash), JCross (krossvord) va JMix (izchillikni tiklash) [9]. Tajriba-sinov ishlarida JCross dasturi yordamida 7-sinf "O'zbekiston tarixi" fanining "Amir Temur davlati" mavzusi bo'yicha o'n bitta tayanch tushuncha (adolat, devon, dargoh, suyurg'ol, markazlashgan va boshq.) asosida didaktik o'yin – krossvord yaratish bosqichlari respondent-talabalarga ko'rgazmali namoyish qilindi. Krossvord to'rini hosil qilishda har bir tushunchaning yangi qatorda yozilishi, so'zlar sonining 20 tadan oshmasligi kabi shartlarga rioya etildi.

Shakllantiruvchi tajriba davomida Power Point dasturida 7-sinf "O'zbekiston tarixi" o'quv dasturining "Amir Temur va temuriylar davri tarixi" bobi mavzulari bo'yicha yettita mustaqil plakatni birlashtirgan interfaol elektron plakat ishlab chiqildi. Plakatlar ro'yxati giperhavolalar orqali tegishli plakatga o'tish, "uycha" shaklidagi tugma esa ro'yxatga qaytish imkonini beradi. Interfaol elektron plakatning muhim afzalligi – istalgan vaziyatda tegishli plakatga qayta murojaat qilish mumkinligi bo'lib, undan takrorlash va umumlashtirish darslarida, sinov hamda imtihonlarga tayyorgarlik jarayonida foydalanish samarali va qulaydir.

Shuningdek, elektron leksikografik mahsulot sanalgan onlayn lug'atlar [10] tarixiy tushunchalarni mustahkamlashda muhim metodik yordam ko'rsatadi. E.V.Yatayeva ta'kidlaganidek, elektron o'quv lug'atining dasturiy ta'minoti o'qituvchiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib lug'at korpusini mustaqil shakllantirish hamda yangi so'zliklar va izohlarni qo'shib borish imkonini beradi [11]. Tajriba jarayonida 7-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligi asosida tarixiy terminlar kichik guruhlarda ajratib olinib, netlify.app platformasida onlayn lug'at shakllantirildi.

Respondent-talabalarining AKTdan foydalanish kompetentsiyalarini baholashda B.Blum taksonomiyasining bilish – tushunish – anglash – tahlil – sintez – qo'llash tizimiga asoslangan "Kompetentsiyalar dinamikasi" texnologiyasi qo'llanildi. Unda o'qitish xarakteridagi dasturlar, saytlar va ta'lim platformalari bilan ishlash kompetentsiyalarining oltita daraja ko'rsatkichi ajratilib, talabalar faoliyati bosqichma-bosqich obyektiv baholandi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, virtual muzey va ekskursiya, didaktik o'yin (krossvord), interfaol elektron plakat hamda onlayn lug'atlardan foydalanish o'quv materialining ko'rgazmali idrok etilishi, mashg'ulotlarning qiziqarli kechishi va bilimlarning puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. HotPotatoes, Power Point dasturlari hamda my.visme.co, netlify.app platformalarida elektron ta'limiy mahsulotlarning yaratilishi AKTning funktsional-texnologik imkoniyatlaridan ta'limiy maqsadlarda foydalanish samarali ekanini tasdiqladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Милач Т.М. Методика преподавания истории: учебно-методический комплекс. – Брест: Изд-во БрГУ имени А.С.Пушкина, 2019. – С. 121.
2. Гук Д.Ю., Определёнов В.В. Виртуальные музеи: терминология, методология, восприятие // Труды XX годичной научной конференции ИИЕТ РАН. Т. II. – М.: Янус-К, 2014. – С. 4.
3. Pescarin S. V-MUST solutions for digital and virtual museums // Museum & the Web-2014. – Florence, 2014. – pp. 131–140.
4. Дзюба Д.Н. Классификация виртуальных музеев: структура и динамика // Международный научно-исследовательский журнал. – 2016. – № 5 (47). Ч. 2. – С. 97–98.
5. Устюжанина Н.В. Виртуальная экскурсия как инновационная форма обучения //

Наука и перспективы. – 2017. – № 2. – С. 45–47.

6. Александрова Е.В. Виртуальная экскурсия как одна из эффективных форм организации учебного процесса на уроке литературы // Литература в школе. – 2010. – № 10. – С. 22.

7. Ганцева С.В. Формирование экологических компетенций с использованием информационно-коммуникационных технологий // Известия Самарского научного центра РАН. – 2014. – Т. 16, № 2 (3). – С. 547.

8. Бовтенко М.А. Методические материалы к курсу «Компьютерная лингводидактика»: рекомендации по созданию интерактивных упражнений с помощью универсальной программы-оболочки «Hot Potatoes». – Новосибирск: Новосибирский ГУ, 2004. – С. 4–6.

9. Hot Potatoes (Martin Holmes, Half-Baked Software and the University of Victoria HCMC, 1998–2004) // <http://web.uvic.ca/hrd/hotpot>.

10. Балалаева Е.Ю. Электронный словарь: сущность, структура, классификации // <https://pedagogika.snauka.ru/2014/04/2238>.

11. Ятаева Е.В. Электронный учебный словарь как средство развития учебной иноязычно-лексической компетенции // Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета. – 2016. – № 10. – С. 137.